

**BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA KOMUNIKATIV
KOMPETENSIYALARINING RIVOJLANTIRISH METODIKASI
(4-sinf misolida)**

Qo'qon Universiteti

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi

4-bosqich talabasi Qushaqova Orastaxon Nodirjon qizi

Ilmiy rahbar: Abduraxmonova Nigoraxon Akramali qizi

Ta'lim kafedrası katta o'qituvchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada kommunikativ kompetentlik tushunchasi, uni mazmun mohiyati, lug'atlarda ta'riflanishi o'rganilgan. Shu bilan birga kommunikativ kompetensiyaning nazariy asoslari tahlil qilinib, olimlarning pedagogik qarashlari bayon qilingan. Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida kompetensiyaviy yondashuv asosida o'qitish, kommunikativ kompetensiya tushunchasi o'zi nima va uni darslarda qanday qo'llanishi haqida bayon qilingan. Shuningdek, kommunikativ kompetensiyaning boshlang'ich sinflarda rivojlantirish uchun turli metodlar va takliflar keltirilgan.

Kalit so'zlar: muloqot, kompetensiya, kommunikativ kompetensiya, kommunikativ mashqlar.

Ta'lim-tarbiya jarayoni nazariy va amaliy bilimlarga tayanadi. Bu jarayonlarni amalga oshirish uchun esa nutqiy muloqot eng zarur vosita hisoblanadi. Muloqot insonning ijtimoiy va ongli mavjudot, ong tashuvchi sifatidagi ehtiyojdir. «Muloqot» tushunchasining turlicha tariflari mavjud. Muloqot ikki yoki undan ortiq odamlar o'rtasidagi bilish yoki affektiv-baholash xususiyatiga ega bo'lgan axborot almashinuvida ularning o'zaro ta'sirlashuvi sifatida ta'riflanadi. Ta'lim sohasini tubdan isloh qilish bugungi kunda barcha sohani qamrab olgan, shu boisi bizning kelajagimiz va ertangi kunimiz davomchilari har tomonlama yetuk va raqobatbardosh kadr bo'lib yetishishlari barchaning diqqat markazidadir. "Bu albatta Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Miromonovichning say-harakatlari natijasidir deya olamiz. Boisi, davlatimiz

rahbari tomonidan chiqarilayotgan farmon va qarorlarda bu o'z aksini topmoqda. “O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 3-fevraldagi Xalq ta'limi tizimini isloh qilish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi F-22-sonli farmoyishlari va bu farmoyishga ko'ra tuzilgan Milliy kengash ham o'z faoliyatini boshlagan, kengash raisi esa bevosita Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Miromonovichning o'zlari hamda kengash a'zolari barcha vazirlar va markaz rahbarlarini tashkil etadi”.¹

Kuni kecha esa yurtboshimiz tomonidan o'tkazilgan yig'ilishda yil boshida belgilangan topshiriqlar ijrosi muhokama qilindi hamda yil yakuniga qadar bajarilishi lozim bo'lgan Xalq ta'limi tizimini rivojlantirish bo'yicha ustuvor vazifalar belgilandi. Bularning barchasi kelajagimiz bo'lgan farzandlarimiz uchundir. Mamlakatimiz tayanchi bo'lgan yosh avlodni har tomonlama bilimli va intellektual salohiyatga ega, o'zining g'oyalari bilan dadil harakat qilishga undaydigan kadrlarni yetishtirish uchun xozirda asosiy e'tiborni boshlang'ich talimga qaratish kerakligi va uni yana qaytadan isloh qilish haqida yurtboshimiz shu selektrda takidlab o'tdilar.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida matematik kompetensiyasini rivojlantirish bu ta'lim sifatini yanada oshirishga hizmat qiladi.

Kompetensiya – fan bo'yicha egallagan nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalarni kundalik hayotida duch keladigan amaliy va nazariy masalalarni yechishda foydalanib, amaliyotda qo'llay olishdir². Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish bu ta'lim sifatini yanada oshirishga hizmat qiladi.

Kompetentlilik –lotincha: competens – layoqatli, qobiliyati bor degan ma'noni ifodalaydi. Kompetentlilik tarkibiga sof kasbiy bilim, ko'nikma va malakalardan tashqari, tashabbuskorlik, hamkorlik, guruhda ishlash layoqati, kommunikativ qobiliyati, real baholay olish, mantiqiy fikrlash, axborotni saralash

¹ <https://lex.uz/uz/docs/-5848414>

² Eraliyeva D.O. Ta'limda til kompetentligini shakllantirish rivojlantirish. Magistrlik dissertatsiyasi. – Namangan: 2019. -97 b. 5

va foydalana olish xususiyatlari ham kiradi.

Muloqotning umumiy falsafiy nazariyasining masalalarini G.S. Batishcheva, L.P. Buyeva, M.S.Kogan, V.M. Sokovnina asarlarida ko'rish mumkin. Muloqot toifasining ahamiyati va uning muvaffaqiyati uchun zarur bo'lgan barcha shaxsiy xususiyatlarni A.A. Brudniy qadimgi davrlarda qayd etilgan deya izohlaydi.. Miloddan avvalgi V asrda sofistlar kommunikativ masalalarga e'tibor qaratib, uning uchta muhim jihatini aniqlab berdilar:

1. boshqa odamlar bilan muloqotni anashu odamlarga ta'sir qilish deb hisoblash;
2. shaxsning boshqa shaxslar bilan kommunikativ aloqasi tasodifiy emas;
3. shaxsning kommunikativ aloqasi ham xavfli hodisa bo'lishi mumkinligini aytib o,,tadi.

Sokrat muloqotda shaxsning o'zini-o'zi bilishning kuchli vositasini ko'ra oldi va Platon o'zaro aloqa g'oyasini ilgari surdi. Ko'p o'tmay Kant o,,z fikrlarini ishlab chiqdi va unga ko,,ra o'ylash o'z-o'zidan gapirish demakdir, deb hisobladi. Ekzistensialistlar (Ekzistensialistlar fikricha, olam ma'nosiz va uni bilib bo'lmasligi abadiy, inson umri o'tkinchi bo'lganligi uchun ham dahshatlidir) esa allaqachon o'zaro tushunishni muloqotning mohiyati deb hisoblashgan. Keyinchalik Alberto Moravia o'zining "O'zaro munosabat" qissasida shunday degan edi: "Asosiy bo'lish - umumiylik xususiyatiga ega bo'lish demakdir".

Xorijiy psixologlar ko'pincha "kommunikativ kompetentsiya" atamasini ishlatadilar. Kommunikativ kompetentsiyani rivojlantirish va takomillashtirish muammosiga zamonaviy yondashuv shundan iboratki, o'rganishlar o'z harakatlariga asoslangan o'z-o'zini rivojlantirish va o'z-o'zini takomillashtirish sifatida qarab kelindi. Bundan tashqari, kommunikativ kompetentsiya boshqa odamlar bilan zarur aloqalarni o'rnatish, qo'llab-quvvatlash qobiliyatini ham anglatadi. Kompetentsiya tushunchasi kommunikativ jarayonning samarali oqimini ta'minlaydigan ma'lum bilim va ko'nikmalar majmuasini o'z ichiga oladi. Kompetensiya so'zining mazmun-mohiyatiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, bu so'z

inglizcha “competence” soʻzi “to compete” soʻzidan kelib chiqqan boʻlib, “musobaqalashmoq”, “raqobatlashmoq”, “bellashmoq”, “samaradorlik”, “moslashuvchanlik”, “yutuqlilik”, “muvaffaqiyatlilik”, “tushunuvchanlik”, “natijalilik”, “uquvlik”, “xossa”, “xususiyat”, “sifat”, “miqdor” degan maʼnoni bildiradi. Soʻzma-soʻz tarjima qilinsa “musbaqalashishga layoqatlilik” maʼnosida keladi.

Bizning eng muhim vazifalarimizdan biri ham oʻquvchilarimizda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish hisoblanadi. Kommunikativ kompetensiya barcha fanlar uchun muhimdir. Nafaqat taʼlim va tarbiya jarayonida ayniqsa, inson hayotda oʻz oʻrnini va yashashdan maqsadini topa olishi uchun juda kerakli ekanligini barchamiz yaxshi bilamiz. Taʼkidlash joizki, kommunikativ kompetensiya uchun eng avvalo shaxs mustaqil fikriga ega boʻlishi, turli vaziyatlarda tez muloqotga kirishishi talab etiladi. Taʼlim va tarbiya farzand dunyoga kelmasin avval boshlanishini va jarayon umrining oxiriga qadar davom etishi haqida juda koʻp fikrlar mavjud.

Boshlangʻich taʼlim, taʼlim jarayonining eng muhim bosqichlaridan biri hisoblanadi. Bu bosqichda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish barchaga birdek masʼuliyat yuklaydi. Ayniqsa, boshlangʻich sinf oʻqituvchilariga va shu bilan birga oʻquvchilarning ota-onalariga. Kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning quyidagi usullari mavjud: Oʻquvchilar fikrini hamisha hurmat qilish; Oʻquvchilar tomonidan berilayotgan savollarga toʻliq javob berish; Qiziqishlarini hamisha qoʻllab-quvvatlash; Muammoli vaziyatlar orqali mustaqil fikr yuritishga undash; Boʻsh vaqtlarini mazmunli tashkil etish; Tasavvuri va ijodiy faoliyatiga erkinlik berish; Sport mashgʻulotlariga jalb etish; Mantiqiy savollar berish;

Bugungi kundagi har bir yangilik, shubhasiz, oʻqituvchilarni qiziqtiradi va ularni oʻz ustida yanada koʻproq ishlashga, oʻz fanini puxta oʻrganishga undaydi. Avvalgi oʻquv dasturlari mazmuni 90 foiz nazariyadan iborat boʻlib, oʻqitish metodikasi yodlatishga yoʻnaltirilgan boʻlsa, yangi Milliy oʻquv dasturining

mazmuni esa 50 foiz nazariya, 50 foiz amaliyotdan iborat bo'lib, o'quvchining mustaqil faoliyatini qo'llab-quvvatlashga qaratilgandir.

O'zbekiston Respublikasida ta'limning uzluksizligi, uzviyligi, o'quvchi shaxsi va qiziqishlari ustuvorligidan kelib chiqib, ularning yosh xususiyatlariga mos ravishda kommunikativ kompetensiyalarni shakllantiriladi. Kommunikativ kompetensiya – ijtimoiy vaziyatlarda ona tilida hamda birorta xorijiy tilda o'zaro muloqotga kirisha olishni, muloqotda muomala madaniyatiga amal qilishni, ijtimoiy moslashuvchanlikni, hamkorlikda jamoada samarali ishlay olish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Kommunikativ kompetensiyani boshlang'ich sinf o'quvchilarida shakllantirish juda muhimdir. Kommunikativ kompetensiyada boshlang'ich sinf o'quvchisining muloqotda muomala madaniyatiga amal qilishni, hamkorlikda jamoada samarali ishlay olish layoqatlarini shakllantirish ham o'z o'rniga ega. Ijtimoiy va iqtisodiy hayot, fan va texnikaning ilgarilab ketishi natijasida deyarli barcha mamlakatda bolalar turli xil gadjetlar va internet ta'sirida ulg'aymoqdalar. Bu bir tomondan ularning aqliy rivojlanishi, tafakkurining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ikkinchi tomondan esa ularni atrofdagilar, tengdoshlari bilan muloqot jarayoniga ko'rinmas to'siq qo'yadi. Negaki, hozirda muloqotning yangi ko'rinishi "onlayn muloqot" vujudga kelgan. "Onlayn muloqot"da esa turli xil tasvir va simvollardan keng foydalanishi natijasida jonli muloqotda muhim ahamiyatga ega bo'lgan hissiyot, mimika, pantomimika, ta'sirchanlik kabilar yuzaga chiqmaydi. Natijada esa bolalarda muloqotchanlik ko'nikmasi juda sekin rivojlanishiga olib kelishi mumkin. Shuning uchun ham bolalarni erkin va kreativ fikrlaydigan, atrofdagilar bilan qiynalmay muloqot qila oladigan, o'z ona tilini sevadigan, o'zligini anglaydigan, ma'naviy yetuk, o'tkir zehn egalari qilib tarbiyalash juda muhim. Ko'zlangan maqsadga erishish uchun milliy o'zligimiz timsoli, ma'naviyatimiz asosi bo'lgan ona tilimizga bo'lgan e'tiborni yanada kuchaytirish, uni rivojlantirish, boyitish uchun aniq vazifalarni belgilab olish lozim.

Bugungi kunga qadar "kommunikativ kompetensiya" tushunchasiga bir

qanqa chet el va mahalliy pedagog olimlar tomonidan turlicha ta'riflar berilgan. Pus pedagogigi S.A.Gilmanova o'zining ilmiy faoliyatida nolingvistik fakulteti talabalarining chet tilidan kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik shartlarini tahlil qilgan va ko'plab ta'riflarni keltirgan. Pedagogika fanlari nomzodi E.I.Litnevskaya "kommunikativ kompetensiya" atamasiga "nutq faoliyatining barcha turlarini hamda og'zaki va yozma nutq madaniyati elementlarini, ma'lum bir yosh uchun hayotiy ahamiyatga ega bo'lgan muloqot sohalari va vaziyatlarida tildan foydalanishning asosiy ko'nikmalari va malakalarini egallash" deb ta'rif beradi. M.R.Lvovning ta'kidlashicha, "Kommunikativ kompetensiya – til (ona tili va ona tili bo'lmagan), uning fonetik xususiyatlari, leksik va grammatik birliklari, stilistikasi, nutq madaniyati, ushbu til vositalariga ega bo'lish va nutq faoliyati turlarini – nutqni bilishni bildiruvchi tushunchadir. U kommunikativ kompetensiyaga tabiiy nutq faoliyati natijasida va maxsus tayyorgarlik natijasida erishiladi – deb ta'kidlaydi³.

Kommunikativ kompetensiya – bu o'quvchilarning o'zgalarning nutqini tushunishi, o'zining og'zaki va yozma, ichki va tashqi nutqiga ega bo'lishi, nutq vaziyatiga mos bo'lgan fikrlarni ayta olishi, turli xil nutqiy vaziyatlardan chiqib keta olish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmaga ega bo'lish demakdir. Bundan tashqari, boshlang'ich sinf o'quvchilarini fikrlashga, o'zgalar fikrini tushunishga, anglaganlarini og'zaki hamda yozma shaklda qayta bayon qila olishga, boshqalarga aniq va tushunarli qilib yetkazib bera olishga o'rgatish, ya'ni ularda kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish, mantiqiy, tanqidiy, kreativ va tizimli fikrlash, mustaqil qaror qabul qila olish, o'quvchilarning o'z intellektual qobiliyatlarini namoyon eta olishlari va ma'naviy jihatdan yetuk shaxs sifatida o'sib ulg'ayishlari uchun zarur shart-sharoit yaratish ona tili fanini yanada rivojlantirish maqsadlaridan biridir. Boshlang'ich ta'lim jarayonining eng muhim bosqichlaridan. Bu bosqichda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish barchaga birdek ma'suliyat yuklaydi. Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'qituvchilariga

³ Гильманова С.А. –Челябинск, 2019. 147 с.

va shu bilan birga o'quvchilarning otaonalariga. Kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning quyidagi usullari mavjud:

O'quvchilar fikrini hamisha hurmat qilish;

O'quvchilar tomonidan berilayotgan savollarga to'liq javob berish;

Qiziqishlarini hamisha qo'llab-quvvatlash;

Muammoli vaziyatlar orqali mustaqil fikr yuritishga undash;

Bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish;

Tasavvuri va ijodiy faoliyatiga erkinlik berish;

Sport mashg'ulotlariga jalb etish;

Mantiqiy savollar berish va boshqalarni sanab o'tishimiz mumkin. Bizning bosh maqsadimiz farzandlarimizni komil inson qilib tarbiyalashdir. Har birimiz yuqorida keltirilgan usullardan foydalansak ayni muddao bo'lar edi. Bu o'z navbatida ta'lim sifatiga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Biz o'quvchilarni boshlang'ich sinfdanoq har qanday vaziyatlarga tez moslashuvchan, mustaqil fikriga ega va adabiy til normalariga amal qilgan holda erkin muloqotga kirisha oladigan qilib tarbiyalab borsak orzu qilgan kelajagimizni yoshlarmiz qo'li bilan yarata olamiz.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikativ kompetensiyani shakllantirishda bir qancha muammolar mavjud bo'lib, ularni hal qilmay turib natijaga erishish qiyin. Ular quyidagilar:

- o'quvchilardagi qo'rquv hissi. Qo'rquv hissi o'quvchilarning o'z imkoniyatlarini ko'rsatishga fikrlarni bayon etishga halaqit beradi. Ichki qo'rquvga ega bo'lgan o'quvchilarni doimo "xato qilib qo'ysamchi?", "balki bu javobim to'g'ri emasdir?" , "hozir gapirsam hamma meni ustimdan kuladi" , kabi savollar qiynaydi.

- o'quvchining tortinchoqligi. Odatda, tortinchoq o'quvchilar muloqot jarayonida juda passiv bo'ladilar. Ularda tortinchoqlik bolalikda paydo bo'ladi. Agar bunday o'quvchilarda muloqotchanlik ko'nikmasi to'g'ri shakllantirilmasa, ularda tortinchoqlik uzoq muddat saqlanib qolishi mumkin.

-o'quvchining darsdagi nafaolligi;

-o'quvchilarning o'z shevasida gapirishi.⁴

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikativ kompetensiyani shakllantirish ulani o'qish, yozish, gapirish va tinglashga o'rgatish orqali amalga oshiriladi. Savod o'rgatish davridan boshlab to'rtala yo'nalish ham parallel ravishda olib boriladi. Bu turli xil mashqlar bilan tizimli ravishda ishlash orqali amalga oshiriladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida muloqotchanlikni shakllantirishda kommunikativ mashqlar yetakchilik qiladi. Kommunikativ mashqlar nutq malakalarini shakllantirish va til bo'yicha amaliy bilimlarning eng yuqori darajasini ta'minlaydigan ijodiy mashq turi. Og'zaki va yozma nutq ko'nikmalarini rivojlantirish uchun foydali bo'lgan yagona mashqlar kommunikativ mashqlar va xususan, ijodiy xarakterdagi kommunikativ mashqlardir .

Kommunikativ mashqlar ba'zi talablarga javob berishi kerak.

-mashqlar aniq nutq vaziyatini, tabiatda sodir bo'layotgan jarayonlarni ifodalashi kerak;

b) mashq sharti tushunarli, topshiriq aniq bo'lishi kerak;

-mashqlar o'quvchilarni tezda charchatmasligi va davomiyligi 3-5 daqiqadan oshmasligi kerak.⁵

Kommunikativ mashqlarni bir nechta turlarga bo'lish mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, til ta'limi jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikativ kompetensiyani shakllantirish eng muhim vazifalardan biridir. Bunda ona tili darslari "muloqot darslarga" aylanmog'i lozim. Buning uchun esa har bir darsning eng katta qismi kommunikativ mashqlarga ajratilishi kerak. Kommunikativ mashqlar qanchalik xilma-xil va mazmunli, aniq maqsadga yo'naltirilgan bo'lsa, o'quvchilar shunchalik muloqotchanligi ortadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.N.A. Abduraxmonova (2025). BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF

⁴ file:///C:/Users/KU/Desktop/12712_1_5A5108347FB2B39BEC42BA4C29DA1F20F5A89A8D.pdf

⁵ <file:///C:/Users/KU/Desktop/Jo'rayeva+Turg'unoy+Umarjonovna.pdf>

O'QITUVCHILARINING IJODIY FAOLLIGINI OSHIRISHDA PEDAGOGIK KO'NIKMALARINING ROLI. *Inter education & global study*, (1 (1)), 15-21.

N.A. Abduraxmonova. "BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINFI O'QITUVCHILARINING IJODIY FAOLLIGINI OSHIRISHDA PEDAGOGIK KO'NIKMALARINING ROLI" *Inter education & global study*, no. 1 (1), 2025, pp. 15-21.

2. Madinabonu Shuxratjon qizi, & Esonaliyeva Guluzra Komiljonova. (2023). INSON QADRI VA BARKAMOL AVLOD SHAKLLANISHIDA PEDAGOGIKANING O'RNI. *QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 1(1), 788–789. <https://doi.org/10.54613/ku.v1i1.717>

3. Komiljonova, G. N. qizi. (2023). FANLARARO BOG'LANISH ASOSIDA BOSHLANG'ICH TA'LIMNI AMALGA OSHIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(12), 198–201. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/5505>

4. Abduraxmonova, N. (2022). BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINFI O'QITUVCHILARINI METODIK TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH MUAMMOSINING PEDAGOGIK ZARURIYATI. *Science and innovation*, 1(B8), 2114-2121.

Abduraxmonova, N. "BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINFI O'QITUVCHILARINI METODIK TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH MUAMMOSINING PEDAGOGIK ZARURIYATI." *Science and innovation* 1.B8 (2022): 2114-2121.

5. Diyoraxon, S., & Komiljonova, G. (2023). BOSHLANG 'ICH TA'LIMDA CHET EL O 'QUVCHILARINI BAHOLASH MEZONI VA SAMARALI TAQDIRLASH. *QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 783-785.

6. Abduraxmonova, N. A. qizi. (2023). Bo 'lajak boshlang 'ich sinfi o 'qituvchilarining ijodiy faoliyatini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(12), 208-211.

Abduraxmonova, N. A. "qizi. (2023). Bo 'lajak boshlang 'ich sinfi o

‘qituvchilarining ijodiy faoliyatini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida." *Educational Research in Universal Sciences* 2.12: 208-211.

7.Nigoraxon, A., & Mohlaroy, A. (2024). boshlang‘ich ta‘limda o‘quvchilar ijodiy faoliyatini tashkil etish texnologiyasi. *Yosh Tadqiqotchi Jurnal*, 3(1), 83-87.

Nigoraxon, Abduraxmonova, and Alijonova Mohlaroy. "boshlang‘ich ta‘limda o‘quvchilar ijodiy faoliyatini tashkil etish texnologiyasi." *Yosh Tadqiqotchi Jurnal* 3.1 (2024): 83-87.

8. Абдурахмонова Нигораксон. (2024). ИДЖОДИЙ ФАОЛИЯТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШДА БО‘ЛАДЖАК БОШЛАНГИЧ СИНФ О‘КИТУВЧИЛАРИНИНГ ИНДИВИДУАЛЬНО-ШАКСИЙ СИФАТЛАРИ. *Университетская исследовательская база* , 55–58.

9. Kalendarova, Z. K. (2022). Innovative model of shaping students’ creative thinking skills in primary education in the process of creating problem situations and its content. *INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE*, 11-137.

10. KALENDAROVA, Z. K. (2021). PRIMARY EDUCATION-THE FOUNDATION OF GENERAL SECONDARY AND HIGHER EDUCATION. *THEORETICAL & APPLIED SCIENCE Учредители: Теоретическая и прикладная наука*, (6), 350-332.